

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.A.Usmonov	
Temuriylar davri Xorazm shaharlarining mudofaa imkoniyatlari.....	338
Sh.M.Ro'ziqulov	
1960-1980 yillarda O'zbekiston hunar-texnika ta'lim tizimida o'zgarishlar	344
E.A.Botirov	
Turkistonda bojxona ishi faoliyatida kadrlar masalasi (1917-1924 yillar)	348
A.A.Aloxunov, Z.O.Raxmanov	
Arxeologik dala qidiruvlarini olib borishda zamonaviy texnika va texnologiya usullaridan foydalanishning samarali jihatlari	353
Sh.Y.Qudratov	
Buxoro amirligida tadbirkorlikning qorako'l teri yetishtirish va savdosi to'g'risidagi ayrim mulohazalar.....	357
U.K.Yuldashev	
Oliy ta'limga qabul jarayonlarida xorijiy tajribaning qo'llanilishi	362
M.B.Abduraimova	
Processes of gold mining in Bukhara at the end of the 19th and the beginning of the 20th century	369
M.A.Мубинов	
Изучение политической, социально-экономической жизни Бухарского эмирата англоязычными авторами	372
A.T.Ochilov	
Buxoro vohasining paleogeografiyasi.....	378
L.N Muxamadiyeva	
Turkistonda harbiy jurnalist kadrlar tayyorlash tarixidan (1919–1924 yillar).....	383

ADABIYOTSHUNOSLIK

G.Erhan, A.G.Sabirdinov, G.M.Oripova	
XX asr she'riyati va G'afur G'ulom	387
T.Matyoqubova	
Tuyg'u va kechinmaning poetik jilosi	393
K.U.Kubayev	
Tarixiy haqiqat va badiiy talqin	398
G.O.Ismailova	
“Qutadg'u bilig”dagi Allohning muqaddas ismlari va ularni tarjimada qayta yaratish masalalari	402
L.B.Ikromova	
Adabiy asarlarda maqollarning o'rni	406
N.U.Ochilova	
Badiiy matnda realiyalarni tarjima qilish xususida.....	411
X.Ч.Чамолова	
Таъсирпазирии Бобур аз адабиёти форсии тоҷикӣ.....	417
M.Z.Djalalidina	
Comprehending the mysteries of postmodern literature: the art of the word by muriel spark	421
X.B.Hasanova	
Xudoyberdi To'xtaboyevning “Sariq devni minib” asarida qo'llangan fentezi janrining tasnifi ...	425
G.O.Abdujalilova	
Bahodir Qobulning “Enashamol” qissasida milliylikning aks etishi	429

TILSHUNOSLIK

R.R.Sayfullaeva, N.I.G'aybullayeva	
Konseptual tahlil usuli va birliklari xususida.....	432
M.Y.Mamajonov	
Muloqot psixologiyistik hodisa sifatida.....	438
Sh.M.Iskandarova, M.X.Komilova	



UO'K: 1751.82.1/9

XUDOYBERDI TO'XTABOYEVNING "SARIQ DEVNI MINIB" ASARIDA QO'LLANGAN FENTEZI JANRINING TASNIFI**КЛАССИФИКАЦИЯ ЖАНРА ФЭНТЕЗИ, ИСПОЛЗУЕМОГО В ПОВЕСТИ «ВЕРХОМ НА ЖЕЛТОМ ДИВЕ» ХУДОЙБЕРДЫ ТУХТАБОЕВА****CLASSIFICATION OF THE FANTASY GENRE USED IN THE STORY "RIDING ON THE YELLOW DIVE" BY KHUODOBERDI TUKHTABOEV****Hasanova Xurshidabonu Baxtiyarovna** 

Navoiy davlat dedagogika instituti, Ingliz tili amaliy kursi kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asarida qo'llanilgan fentezi janrining tasnifi ochib berilgan. Maqsad asardagi fentezi usulining keng qo'llanishida asosiy omil bo'lgan badiiy matnning ta'sirchanlik tahlili tartibi adabiyotda mazmunan turg'unlashgan janrlar muhim o'rin tutishi ilmiy asoslangan. Ushbu mavzu bo'yicha tadqiqot metodlarining dolzarbligi yangi fentezi asarlarning paydo bo'lishi va ularning kinoga moslashishi bunday adabiyotning tobora ommalashib borayotganidan dalolat beradi va natijada fantastik janrdagi yozilgan asar syujeti sarguzasht tamoyiliga asoslanadi. Tadqiqot xulosasi sifatida, adibning asarida qo'llanilgan fentezi janri tasnifining, maqolada barcha xususiyatlari har tomonlama ko'rib chiqilganligi hamda mazmuni bilan bog'liqligi isbotlangan.

Аннотация

В данной научной статье раскрывается классификация жанра фэнтези, использованного в произведении Худойберди Тухтабаева «Верхом на желтом великане». Основным фактором широкого использования метода фэнтези в творчестве является метод анализа эффективности художественного текста. Научно обосновано, что содержательно-застойные жанры занимают важное место в литературе. Об актуальности методов исследования данной темы свидетельствует появление новых произведений фэнтези и их адаптация к кино, рост популярности такой литературы, в результате чего сюжет произведения, написанного в жанре фэнтези, строится по принципу приключений. В заключении исследования доказывается, что классификация жанра фэнтези, используемая в творчестве писателя, связана с содержанием всех его признаков.

Abstract

This scientific article reveals the classification of the genre of fantasy used in Khudoyberdi Tokhtabayev's work "Riding the Yellow Giant". The main factor in the widespread use of the fantasy method in the work is the method of analysis of the effectiveness of the artistic text. It is scientifically based that the content-stagnant genres occupy an important place in literature. The relevance of research methods on this topic is evidenced by the emergence of new fantasy works and their adaptation to cinema, the increasing popularity of such literature, and as a result, the plot of the work written in the fantasy genre is based on the principle of adventure. As a conclusion of the research, it is proved that the classification of the fantasy genre used in the writer's work is related to the content of all its features.

Kalit so'zlar: fentezi, badiiy adabiyot, tasnif, janr, monolog, Xudoyberdi To'xtaboyev, sarguzasht asar**Key words:** fantasy, fiction, classification, genre, monologue, Khudoyberdi Tokhtabayev, adventure work**Ключевые слова:** фэнтези, художественная литература, классификация, жанр, монолог, Худойберди Тухтабаев, приключенческое произведение**KIRISH**

O'zbek adabiyoti hamisha jamiyat hayotining muhim muammolarini badiiy yoritib kelgan. Bu, ayniqsa, mustaqillikka erishganimizdan keyin yanada to'laroq namoyon bo'lmoqda. Sababi, bugungi kundagi adabiyotimizga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda yangi yo'nalishlarni va oqimlarni, uslublarni va janrlar xilma-xilligining, rangbarangligining guvohi bo'lamiz. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik jarayonlar, eng asosiysi, badiiy ijodga ta'liqli bo'lgan ijod erkinligi bilan bog'liqdir.

Fentesi (ing.) — zamonaviy san'at janri, ilmiy fantastika turidir. Fantastik janrdagi asarlar mifologik va ertak motivlariga asoslanadi, mualliflar tomonidan qayta talqin qilingan yoki qayta ishlangan. Zamonaviy fantaziyaning birinchi asarlari XX asrning boshlarida paydo bo'la boshladi.

Atom va yadro jarayonlarini boshqarish, elektronika, kibernetika, genetika, ufologiya singari fanlarining rivojlanishi, koinotni inson tomonidan o'zlashtirish kabi tarixiy voqealar fantastikaning to'g'ri yo'ldan borayotganligidan dalolat beradi. Zero, undagi ilmiy farazlar fan-texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini to'g'ri belgilab bergan. Shuni ham aytish kerakki, fantaziya bugungi kunda fan-texnika muammolari doirasidan chiqib, ijtimoiy-falsafiy masalalarni ham qamrab olmoqda.

Fentezi - bu xayoliy koinotda sodir bo'ladigan voqealar aks etgan janr bo'lib, ko'pincha haqiqiy dunyo afsonasi va folkloridan ilhomlanadi. Uning ildizi og'zaki an'anaviy dostonlarga borib taqalib, keyinchalik fantastik adabiyot, ilmiy fantastika hamda drama kabi alohida sabjanlar kelib chiqqan.

XX asrdan boshlab turli xil ommaviy axborot vositalarida, jumladan kino, televideniya, grafik romanlar, animatsion filmlar va video o'yinlarda ham o'z aksini topdi. Fantaziya, ilmiy fantastika va qo'rqinchli gotik janrlari bir-biriga juda o'xshasada, ularning asosiy farqi fentezi janriga mansub asarlarda ilmiy mavzular muhokama qilinmaydi. Fentezi janrning o'ziga xos xususiyatlari juda ko'p bo'lib, ular qatoriga g'ayrioddiy jonzotlarning mavjudligi (elf, kentavr, suv parisi, goblin, sirena va boshqalar), qahramonlarning noreal xatti-harakatlari (kelajakni bashorat qilish, devorning narigi tomonini ko'rish, uchish va hokazolar) kabilar kiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Fentezi janri haqida gapirar ekanmiz, unga ishora etuvchi bir qancha jihatlar mavjudki, ular bizga ushbu janrni tezda farqlab olish imkonini beradi. Vaqtlar almashinuvi hamda turli xayoliy qiroliklar fentezi dunyosida tez-tez uchrab turadigan hodisa. Janrning xususiyatlaridan yana biri fantastik dunyoda g'alati jonzotlar ham hayot kechirishadi (so'zlovchi buyumlar va hayvonlar, afsonaviy jonzotlar, ritsarlar, sehrgar-u afsungarlar, bo'ri-odamlar, elflar, arvohtarlar, ajdarholar va shunga o'xshash boshqa mavjudotlar).

XX-XXI asr adabiyotida fentezi janrida yozilgan asarlarning o'rni alohida ahamiyatga ega. Fentezi janri o'zining sarguzashtlarga boyligi, voqealar rivojining qiziqarliligi, real hayot muammolaridan qochish imkonini berishi va sehr-jodu unsurlaridan foydalanilgani bilan ajralib turadi.

Fentezi – ko'p qirrali janrdir. Umuman olganda, fentezi ilmiy jihatdan qat'iy ilmiy va ijtimoiy sohasida ajralib turadi. Baz'i hollarda har ikkala janrning sintezini ham ilmiy va texno-fantaziya shaklida ko'rishimiz mumkin.

Keyingi vaqtlarda adabiy asarlarda muallif ijodkor sifatida ishtirok etib, o'z tarixi, madaniyati va turli xil ixtiro tillarida so'zlashuvchi etnik guruhlariga ega bo'lgan noyob dunyoni yaratish tendensiyasi mavjud. Bunday badiiy ijod nisbatan yangi adabiy janrlar - ilmiy fantastika va fenteziga tegishlidir.

“Adabiy fentezi matnning tasnifi” asarining mualliflari fentezining quyidagi asosiy shakllari borligini ta'kidlashadi:

- Ifoda usuliga ko'ra: mantiqiy, emotsional va miqdoriy gradatsiya;
- Ifoda materialiga ko'ra: leksik daraja va sintaktik darajadir.

Shunga qaramay, fantaziya janrining adabiy mustaqilligi masalasi hali to'liq hal etilmagan, bu, shubhasiz, ikki yo'nalish chegaralarining aniq emasligi bilan bog'liqdir. An'anaga ko'ra, ilmiy fantastika nasrida insoniyat sivilizatsiyasining kelajakdagi ilmiy-texnik taraqqiyoti tasvirlangan bo'lsa, fantastik romanlar tarixiy yilnoma, ertak va qahramonlik eposi chorrahasida muvozanatlashgan qadimgi sehrli sivilizatsiyalar davrini qayta tiklaydi. Shu bilan birga, ba'zi asarlar ikkala janrning xususiyatlarini o'zida mujassam etgan, bu ularni har ikki yo'nalish bilan so'zsiz bog'lashga imkon bermaydi.

O'zbek adabiyotida ilmiy fantastika janri XX asrning 70-yillar ikkinchi yarmi va 80 yillar boshlaridan rivojlana boshladi. O'sha davrda Tohir Malik, Xudoyberdi To'xtaboyev, Hojiakbar Shayxov, Mahkam Mahmudov, Sohiba Abdullayeva, Rustam Obidov, Ozod Mo'minovlar o'z asarlari bilan matbuotda ko'rina boshlagan. Ko'p o'tmay ular yoniga Hasan va Husan Tursunovlar, Muhabbat Yo'ldosheva, Mavluda Ibrohimova, Abduqayum Yo'ldoshev kabi ijodkorlar qo'shilgan.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Bu adiblarning asarlari rus va boshqa qardosh tillarga ham tarjima qilinib, turli jurnallar, gazetalarda, fantastik asarlar to'plamlarida nashr etila boshladi.

Shu qatorda, takidlash kerakki, o'zbek adabiyotida fentezi janrida faol va atoqli namoyandamizdan biri Xudoyberdi To'xtaboyevdir. Adib o'z asarlarida ushbu janrni bolalar xarakterlari, bolalarning ma'naviy olamini mukammal yoritishda foydalangan adiblardan biri sanaladi. Darhaqiqat, adib, mana, necha yillardirki, yozuvchilik iste'dodini bolalar va o'smirlarning ma'naviy tarbiyasiga bag'ishlagan. U ana shu [maqsadda yoshlar nashriyoti](#), "Gulxan", "Yosh kuch" jurnallarida faoliyat ko'rsatib, o'zi e'tirof etganidek, "Bola va o'smir ruhidagi go'zallikni himoyalash"ga e'tibor berib kelgan. Yozuvchi tinimsiz mehnati, izlanishlari, bolalarga cheksiz mehr-muhabbati tufayli o'zbek bolalar adabiyotining zabardast namoyandasiga aylandi. Adib qalamiga mansub "Omonboy va Davronboy sarguzashti" qissasi (1974-yil), "Sariq devni minib" (1968-yil), "Sariq devning o'limi" (1973-yil), "Besh bolali yigitcha" (1976-yil), "Qasoskorning oltin boshi" (1981-yil), "Yillar va yo'llar" (1983-yil), "Shirin qovunlar mamlakati" (1986-yil), "Mungli ko'zlar" (1988-yil), "Jannati odamlar" (1996-yil), "Qiz bolaga tosh otmang" (2003-yil), "Qiz talashgan o'smirlar" (2010-yil), "Quyvonlar saltanati" (2013-yil) [kabi romanlari](#), "Yangi ohangda kuylayotgan viloyat" (2013-yil, hujjatli qissa), "Tagob qishloq ertaklari" (2016-yil), "Qaylarda qolding, bolaligim" (2016-yil) singari asarlari ana shu xayrli faoliyat mevalaridir.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Xudoyberdi To'xtaboyev o'zbek adabiyotida, ayniqsa, nasrida yangi davrni boshlab berdi. U yaratgan personajlarning yurish-turishi, nutqi, xarakteridan kitobxonlar nihoyatda mamnun bo'ldi. Yozuvchi o'z tabiatidagi xushchaqchaqlik va beg'uborlikni o'z asarlariga o'tkaza oldi. Yozuvchi yaratgan obrazlar o'ziga xos xususiyatlari bilan ko'plab kitobxonlar qalbida yashaydi. Sababi, bu qahramonlar obrazlari hayratlanarli darajada yorqin, xushchaqchaq, bolalarcha beg'uborlik va soddalik, kulgi, hazil-mutoyiba qahramonlar tabiatini yanada yorqinroq qilgan.

Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" qissasi Italiyada ikki bor nashr qilingani, jahonga buyuk yozuvchilarning unga bergan ta'rifi, sinchkov kitobxonlarining nazariga tushganligi Xudoyberdi To'xtaboyevning baxti edi. Angliyada, Fransiyada kitob qadriga yetadigan zukko kitobxonlarga manzur bo'lgan bu asar butun o'zbek adabiyotining obro'si bo'lganini tan olishimiz kerak.

Sariq devni minib asarining jahon tillariga tarjima qilinishiga sabab – 1971-yili Italiyaning Rim shahrida bo'lib o'tgan jahon bolalar yozuvchilarining kengashida Janni Rodarining shu asar haqida aytgan iliq gaplari bo'lgan: "Sehrli qalpoqchadagi quvnoq yumor, boy fantaziya menga ma'qul bo'ldi".

Shuning bilan birga, adibning bu qissasi va uning mantiqiy davomi bo'lgan "Sariq devning o'limi" romanlari nafaqat o'zbek adabiyoti, balki jahon adabiyoti ko'lamida ham bolalar uchun yaratilgan sarguzasht asarlarning eng yaxshi namunasiga aylandi.

Ushbu ilmiy maqolada biz tadqiqot oilb borayotgan Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asari tahlili hamda uning ayrim xususiyatlariga to'xtalamiz. Asar matnida fentezi janrini tasniflovchi ko'plab vositalar mavjuddir. Xususan, fentezi ma'nosini kuchaytiruvchi quyidagi uslubiy jarayonlar ochib berilgan:

- his-tuyg'u kechinmalarini solishtirish;
- his-tuyg'ularni to'liq ifodalash.

Hozirgi vaqtda ushbu mavzu bo'yicha tadqiqotlarning dolzarbligi shubhasizdir, chunki butun dunyoda yangi asarlarning paydo bo'lishi va ularning kinoga moslashishi bunday adabiyotning tobora ommalashib borayotganidan dalolat beradi. Fantastik janrda yozilgan asar syujeti sarguzasht tamoyiliga asoslanadi.

Badiiy adabiyotlarda fentezi janrini o'rganish, uning lisoniy va uslubiy xususiyatlarini ajratib ko'rsatish uchun avvalo lisoniy-madaniy qiyoslash, tahlil qilish kabi vositaga murojaat qildik. Matn turli pozitsiyalardan tahlil qilinganligi sababli, lingvistik va stilistik tahlilga ham turlicha yondashuvlar mavjuddir.

XULOSA

Demak, buyuk adibimizning ushbu qissalari inson komillikka yetishi uchun kattalarning pand-nasihatlariga astoydil e'tiborli bo'lishlarini talab etadi. Bolalar adabiyotidagi fentezi janri yoshlarni imon-e'tiqodli kishilar sifatida va Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda

mamlakatimizning qudratli quollaridan biridir. Bugungi davrda bu sohaga intilish, qiziqish, o'rganish, o'zlashtirish yanada oshdi. Shunday ekan, kichkintoylarga atab yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos bo'lishi, ular qalbida chuqur o'y-fikrlar uyg'otishi, yorqin obrazlar va yuksak g'oyalarga boy bo'lishi, ularni ulkan va porloq ishlarga ilhomlantirishi zarur. Eng muhimi, mavzular tushunarli, sodda va qiziqarli tilda yoritilishi lozim. Faqat chinakam badiiy asarlargina bolalarga kuchli ta'sir ko'rsatib, ana shu talablarga javob bera oladi. Shu sababli bunday kitoblar pedagogik va psixologik nuqtayi nazardan ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar adabiyotida fentezi janri ushbu vazifalarni bajarishda badiiy tilga suyanadi. Adabiy asarning tili uning g'oyaviy mazmunini aniq va ifodali ochib berish vositasidir.

Shunday qilib, Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asarida qo'llangan fentezi janrining tasnifi, barcha ko'rib chiqilgan xususiyatlarini hisobga olgan holda, biz xulosa qilishimiz mumkinki, o'rganilayotgan asar janrning mazmuni bilan bog'liqdir. Asarning kompozitsion tuzilishi odatda qahramonlarning sarguzashtlari zanjirini ifodalaydi, bu boshqa janrlarga ham xosdir. Biroq, fantaziya janri ikkinchi darajali dunyoning mavjudligi, o'rta asrlar tajribasidan foydalanish, sayohat qilish tamoyili, romantik qahramonlarning mavjudligi, fantastik mavjudotlarning mavjudligi, tipik syujet tanlangan qahramon tomonidan dunyoni qutqarish, tarixiy va mifologik vaqtning to'qnashuvi, mehr chizig'ining katta ahamiyati, tasodif yoki taqdir rolining mavjudligidadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Kh. Tukhtaboyev. "Sariq devni minib", Tashkent, 2021. – bet.272 (Kh. Tukhtaboev. "Riding the Yellow Giant", Tashkent, 2021. - page 272)
2. Kh. Tukhtaboyev "Jannat odamlari". Tashkent, 2019.-bet 272
3. Khudoiberdi Tukhtaboev "Riding the Yellow Giant". New Century Generation Tashkent,2013.- bet. 240
4. Khudoiberdi Tukhtaboyev "The King of the Rabbit Kingdom" (novel) Tashkent, 2015.- bet 240
5. Khudoiberdi Tukhtaboyev "Country of sweet melons" (novel) 2021. – bet..272
6. Hasanova X.B "Linguistic analysis of Khudoyberdi Tukhtaboyev's works", Qardu xabarlari - 2023 yil, Qarshi. bet-157-163
7. Ursula Le Guin Volshebrik Zemnomorya-Earth Sea Wizard 1968.
8. Hasanova X.B. "Ursula Le Guin va Xudoyberdi Toxtaboyev ishlaridagi fantaziya janrining lingvomadaniy xususiyatlari", Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi taxririya, Avgust - 8 soni.2022yil , Xiva,-B.20-23
9. Hasanova X.B "Linguacultural comparison of the fantasy genre in the works of Ursula Le Guin and KHudoyberdi", Eurasian Journal of Academic Research, Volume 2 Issue 2, February, 2022 -B.229-233
10. <https://uz.eferrit.com/biography-ursula-k-le-guin/>
11. [Official website](#)